

1-IYUN – BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNI: UNING TARIXIY, TARBIYAVIY VA MADANIY AHAMIYATI.

Zulfixorova Nozima Jamoldinovna

Annotation.

Mazkur maqolada 1-iyun – Bolalarni himoya qilish kunining kelib chiqish tarixi, uning xalqaro va milliy miqyosdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu sana nafaqat bolalarni himoya qilishga da'vat etuvchi kun sifatida, balki jamiyatda ularning huquqlarini ta'minlash, tarbiyaviy jarayonda ularning o'rnini mustahkamlash va milliy qadriyatlar asosida sog'lom avlodni voyaga yetkazishdagi madaniy omil sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada shu kuni o'tkaziladigan tadbirlarning ma'naviy-tarbiyaviy mazmuni, oilaning, maktab va jamiyatning bu boradagi roli keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: 1-iyun, bolalarni himoya qilish, huquq, tarbiya, madaniyat, sog'lom avlod, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, xalqaro kun, oilaviy qadriyatlar, bolalar huquqlari.

Har bir jamiyatning kelajagi uning bugungi bolalariga bog'liq. Shu boisdan dunyo mamlakatlarida bolalar huquqlari, ularning xavfsizligi, sog'lom va har tomonlama rivojlanishi masalalari doimo dolzarb bo'lib keladi. 1-iyun sanasi – Bolalarni himoya qilish xalqaro kuni sifatida nishonlanishi ushbu masalalarga global e'tibor qaratilayotganini anglatadi. Bu kun butun dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ham bolalarning manfaatlarini himoya qilish, ularning hayotida mehr, e'tibor va quvnoqlik muhitini yaratish, farzandlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida turli tadbirlar bilan nishonlanadi.

Bolalarni himoya qilish kuni ilk bor 1949-yil Parijda bo'lib o'tgan Xalqaro Demokratik Ayollar Federatsiyasi kongressida taklif etilgan. Shu asosda 1950-yil 1-iyunda ilk bor Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni sifatida nishonlana boshlandi.

Ushbu sana urushlardan aziyat chekkan bolalar hayotini himoya qilish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish zarurati bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. XX asrda yuz bergen urush va ijtimoiy inqirozlar natijasida bolalar eng zaif qatlama sifatida tan olinib, ularning himoyasini ta’minlash global miqqyosdagi dolzarb masalaga aylangan.

Bugungi kunda bolalar huquqlarini himoya qilish nafaqat xalqaro tashkilotlar, balki har bir davlatning ijtimoiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biridir. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiyasi” bolalarning yashash, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash va fikr bildirish huquqini tan olgan muhim hujjat hisoblanadi. O‘zbekiston ham ushbu konvensiyani imzolagan va milliy qonunchilikda bolalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator huquqiy asoslarni yaratgan.

O‘zbekistonda “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi qonun, “Oilani qo‘llab-quvvatlash va bolalar manfaatlarini himoya qilish yili” doirasida qabul qilinayotgan dasturlar, maktabgacha ta’lim tizimining rivojlantirilishi, maktablarda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar – bularning barchasi bolalarning farovon hayoti uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni ko‘rsatadi.

1-iyun sanasi – bolalarni himoya qilish kuni sifatida, eng avvalo, tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ushbu kun doirasida tashkil etiladigan tadbirlar, bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni insonparvarlik, do‘stlik, bag‘rikenglik va mehr-oqibat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ota-onalar, pedagoglar va keng jamoatchilik bu jarayonda faol ishtirok etadi. Ayniqsa, maktab va bog‘chalar doirasida o‘tkaziladigan madaniy-ma’rifiy tadbirlar orqali bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularning jamiyatdagi o‘rnini anglashiga ko‘maklashiladi.

Ushbu kun turli millat va elatlar madaniyatida bolaga bo‘lgan hurmat va e’tiborni ifodalaydi. 1-iyun sanasida o‘tkaziladigan festival, konsert va ko‘rgazmalar bolalarning iqtidorini namoyon etish, ularning estetik dunyoqarashini shakllantirish, milliy madaniyat va san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tadbirlar orqali ota-onsa va farzand o‘rtasidagi bog‘liqlik mustahkamlanadi.

Bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash – bu faqat ota-onalarning emas, balki butun jamiyatning vazifasidir. Aholining ongini oshirish, bolalar huquqlari borasida tushuncha berish, ularni himoya qilishga doir jamoaviy mas'uliyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali bolalar huquqlarini targ'ib qilish, ularni ijtimoiy hayotda faol qatnashishga undovchi loyihalarni yaratish katta samara beradi.

Mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari va yoshlar tashkilotlari bolalarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, ularning bilim va iste'dodini ro'yobga chiqarish, xavfsiz va sog'lom muhit yaratishda muhim o'rinni tutadi. Ijtimoiy sheriklik asosida olib borilayotgan loyihalar, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga alohida e'tibor qaratmoqda.

Garchi xalqaro va milliy darajada bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ko'plab huquqiy-huquqiy asoslar yaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

- Ba'zi hududlarda bolalarning mактабга bormasligi yoki erta mehnatga jalb etilishi;
- Oila ichidagi zo'ravonlik holatlari;
- Bolalar psixologiyasi bilan bog'liq muammolarga yetarlicha e'tibor berilmasligi;
- Iqtidorli bolalar bilan individual ishslashga zarur shart-sharoit yetishmasligi.

Bu kabi muammolar faqat davlat emas, balki butun jamiyat e'tiborini talab qiladi. Har bir bola shaxs sifatida qadrlanishi, hurmat qilinishi, salohiyati to'liq ro'yobga chiqarilishi kerak.

Xulosa

1-iyun – Bolalarni himoya qilish kuni nafaqat bolalar huquqlarini himoya qilishni targ‘ib qilish, balki jamiyatda ularning salomatligini, ta’limini va ijtimoiy farovonligini ta’minlashdagi mas’uliyatni yana bir bor eslatadi. Ushbu sana xalqaro miqyosda bolalarning huquqlari, xavfsizligi va ularga qarshi turli tahdidlar haqidagi jamoatchilik ongini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston ham bu kunni yuksak ma’naviy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tadbir sifatida keng nishonlaydi va davlat siyosatida bolalar huquqlarini ta’minlashga katta e’tibor qaratmoqda.

Biroq, bolalarni himoya qilish masalasi hali ham murakkab va turli muammolarni o‘z ichiga oladi. Bularning barchasini hal qilish uchun davlat va jamiyatning hamkorligi, oilalarning tarbiyaviy roli va bolalarning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi dasturlar va tashabbuslar zarur. Shu bilan birga, bolalarni himoya qilish faqat muassasalar va tashkilotlar mas’uliyati emas, balki har bir insonning mas’uliyatidir.

1-iyun sanasi nafaqat bolalar uchun, balki butun jamiyat uchun qayta tiklanish va ijtimoiy ongni oshirish kuni sifatida ahamiyatga ega. O‘zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilish borasidagi islohotlar va yangi tashabbuslar bu sohada yanada katta natijalarga erishish imkoniyatini yaratmoqda. Shuningdek, bolalarimizning kelajagi uchun har tomonlama xavfsiz, sog‘lom va ma’naviy boy jamiyatni barpo etishda har birimizning hissamiz katta.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Yang, Unity Elias. Women's and Children's Chambers of Parliament. Bloomington, IN, US: AuthorHouse, 2015. ISBN 978-1-5049-4192-1.
2. World Children's Day“. Qaraldi: 2020-yil 2-iyun.
3. Reading Eagle – Google News Archive Search“. Qaraldi: 2016-yil 14-iyun.
- 4.The Sharon Baptist Church“. 2016-yil 1-aprelda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2016-yil 14-iyun.